

O'RTA ASR ARAB MANBALARIDA SALJUQIYLAR DAVRI (1038–1308) TARIXINING YORITILISHI

Rajapov Pirnazar Sardor o'g'li,

*Teacher, the department of Arabic translation theory and practice Uzbekistan
State World Languages University Tashkent, Uzbekistan.*

rajapovpirnazar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada saljuqiylar davri (1038–1308) tarixi yoritilgan o'rta asr arab manbalari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida asar muallifi va u yashagan davr ilmiy muhiti, asarning tarkibi va umumiy mazmuni, bugungi kunda manbaning zamonaviy nashrlari va tarjimalari kabi jihatlariga to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: ibn Javziy, Azimiy, Bundoriy, Ibn al-Adim, Ibn Kalonisiy, "Tarix al-fariqi", "Al-Komil fit-tarix".

Аннотация. В данной статье анализируются арабские средневековые источники, освещающие историю сельджукидов (1038–1308 гг.). В ходе анализа были затронуты автор произведения и научная среда того периода, в котором он жил, состав и общее содержание произведения, современные редакции и переводы источника.

Ключевые слова: Ибн Джавзи, Азими, Бундари, Ибн аль-Адим, Ибн Каланиси, "Тарих аль-фарики", "Аль-Камиль фит-тарих".

Abstract. This article analyzes the arabic medieval sources that illuminate the history of the Seljuks (1038–1308). During the analysis, the author of the work and the scientific environment of the period in which he lived, the composition and general content of the work, modern editions and translations of the source were touched upon.

Key Words: Ibn al-Jawzi, Azimi, Bundari, Ibn al-Adim, Ibn Kalanisi, Ibn "Tarikh al-Fariqi", "Al-Kamil fi at-Tarikh".

Shimoliy Afrikadan tashqari deyarli butun Islom olamiga hukmronlik qilgan saljuqiylar davrida Islom sivilizatsiyasi tarixida yangi davr boshlandi. Saljuqiylar davri Islom tarixining uch asrini qamrab olgan bo'lsa-da, bu davrda Islom tamaddunida erishilgan yutuqlar to'laqonli ochib berilmagan. Hatto, saljuqiylar davri tarixini buzib ko'rsatib, noto'g'ri talqin qilish holatlari ham kuzatilgan. Buning sababi, birinchidan, saljuqiylar tarixi Xitoy chegaralaridan to O'rta yer dengizi sohillarigacha bo'lgan mamlakatlar, qabila va elatlarni o'z ichiga olganligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, turli tillardagi manbalarning mavjudligi, ba'zilarining tartibsizligi va ba'zi davrlarga oid ma'lumotlarning yetarli emasligi keng qamrovli davrni o'rganishni qiyinlashtiradi. Darhaqiqat, saljuqiylar hukmronligining muhim voqealarga boy bo'lgan dastlabki davri (XI–XII asrlar) ga oid manbalar keyingi asrlardagi manbalarga nisbatan kamroq.



Buning ustiga XI-XII asrlarda yozilgan tarixiy asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Jumladan, Ali ibn Abulfaraj Basriyning “Siyrat al-malik To‘g‘rulkbek as-saljuqiyy”, muallifi noma‘lum “Risolayi Malikshoh”, Ali ibn Mahmud Qayiniyning “Mafohirul-atrok”, Muizziyning “Siyar va futuhi sulton Sanjar”, Abu Tohir Xotuniyning “Shikornoma” kabi asarlari bugungi kungacha yetib kelmagan bo‘lib, biz shunday asarlar mavjud bo‘lganini keyingi davr mualliflari o‘z kitoblarini yozishda ulardan manba sifatida foydalanib, iqtibos keltirishganidan bilamiz.

Saljuqiylar davri tarixi yoritilgan manbalarni xronologik nuqta‘i-nazardan uch guruhga bo‘lishimiz mumkin:

- I. Saljuqiylar davrida yozilgan manbalar
- II. Saljuqiylar davriga yaqin zamonda yozilgan manbalar
- III. Saljuqiylar davri tarixi yoritilgan zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar

Bu yerda saljuqiylar davri va ularga yaqin zamonda yashagan mualliflarning asarlariga to‘xtalib o‘tamiz. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bu davr manbalarining aksariyati arab va fors tillarida bitilgan.

Ibn Kalonisiy (vaf. 555/1160) ning “Zaylu tarixi Damashq” asarida Ixshidiylar sulolasi hukmronligining so‘nggi davrlaridan to Nuriddin Zangiyning Damashqni fath qilishiga qadar kechgan tarix bayon qilingan. Asarning dastlabki sahifalarida voqealar voliyalar boshqaruvi davri bilan 449/1057-yildan boshlab yilma-yil yoritilgan. I salib yurishlarida musulmonlar va salibchilar orasida kechgan voqealar ilk marotaba batafsil yoritilgan manbadir. Asar saljuqiylar davridagi Shom tarixi bo‘yicha birlamchi manba hisoblanadi. Asarda Buyuk Saljuqiylar davrida botiniylarning Suriyadagi faoliyati: ular tomonidan egallangan qal‘alar va qatl qilingan amaldorlar, xususan, sulton Muhammad Tapar va sulton Sanjar davridagi botiniylarga qarshi olib borilgan kurashlar o‘rin olgan. Asar arab, qisman ingliz va fransuz tillarida nashr qilingan.

Azimiy (483/1091-1161/556) ning Mosul otabegi Imomiddin Zangiyga bag‘ishlangan “Tarixul-azim” asarida insoniyat tarixining ilk davridan 538/1144-yilgacha bo‘lgan voqealar yoritilgan. Asarda Buyuk Saljuqiylar davlatining shakllanish jarayoni, o‘g‘uzlarning Ozarbayjonga yurishlari, Hasanqal‘a (Pasinler) jangi (440/1048-yil), Qutalmishning Kars shahriga yurishi, Ibrohim Yinalning isyonlari, Alp Arslonning Suriyaga harbiy safari va Malazgirt jangi, Sulaymonshohning Iznik va Antokiyani qo‘lga kiritishi, Sulaymonshohning Halabni qamal qilishi va Kurzahil jangida Sharafuddavla Muslim bilan to‘qnashuvi, Sulaymonshohning Aynu Saylam mavzeyida Tutushga qarshi kurashi va muhorabada halok bo‘lishi bayon qilingan.

Fransuz sharqshunosi Claude Cahen 1938-yil asarning 455/1063-538/1144-yillar tarixiy voqealarini qamrab olgan qismini nashr qilgan. Lekin Ali Sevim Cl. Cahenning nashrida arab tili grammatik qoidalariga rioya qilinmagani va ko‘p o‘rinlarda asl nusxadagi ba‘zi matnlar keltirilmaganligini ta‘kidlab o‘tgan. Ali Sevim ham asarning saljuqiylar davriga bog‘liq qismini turk tilida nashr ettirgan.

Ibn Azraq (510/1117-577/1181) ning “Tarix al-fariqi” yoki “Tarixi Mayyafariqin va amid” asarining alohida ikkita nusxasi bo‘lib, ulardan mufassali 572/1176-yilgacha bo‘lgan voqealarni qamrab olgan. Asarda muallif Mayyafariqin, Amid, Mosul, Mardin, Bag‘dod, Shom, Gurjiston shaharlarida bo‘lgan chog‘larida o‘zi guvohi bo‘lgan hodisalar, turkmanlarning Anadoludagi yurishlari va Anadolu Saljuqiylar davlatining tashkil topish jarayoni, Elg‘oziy, Imoduddin Zangiy, Nuriddin Mahmud Zangiy davrlari haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirgan. Bundan tashqari, Mustarshid billah, Rashid billah va Muktafi liamrillah xalifaligi davrlaridagi abbosiylar va saljuqiylar do‘stona munosabatlari yoritilishi nuqta’i nazaridan diqqatga sazovor manba hisoblanadi. Asarning marvoniylar (“Tarix al-fariqi”) va ortuqiylar (“Tarixi Mayyafariqin va amid”) haqidagi qismlari alohida-alohida nashr qilingan. Asar arab, turk, qisman ingliz, rus tillarida chop etilgan.

Abulfaraj ibn al-Javziy (510/1116-597/1201) ning “al-Muntazam fi tarix al-muluk va-l-umam” asarida dunyo yaratilishidan 574/1179-yilgacha bo‘lgan voqealar haqida so‘z boradi. Asar Saljuqiylar davlatining tashkil topish jarayoni, Qutalmish va Ibrohim Yinalning Vizantiyaga qarshi harbiy yurishlari, sulton Alp Arslonning taxtga chiqishi va Malazgirt g‘alabasi, Kavurdbeyning saltanat uchun sulton Malikshohga qarshi kurashi, saljuqiylar va abbosiylar sulolalari munosabatlari yoritilgan muhim manba hisoblanadi. Asar to‘lig‘icha arab tilida (17 jild), 15-16-jildlarining 429/1038-485/1092-yillar oralig‘i saljuqiylar tarixi bayon qilingan qismlari esa turk tilida nashr qilingan.

Saljuqiylar tarixining muhim manbalaridan biri bo‘lgan “Axbor ad-davlat as-saljuqiyya” asari muallifi Sadriddin Abulhasan Husayniy (vaf. 590/1194) ekanligi aniq emas. Asarning unga nisbat berilishiga sabab Sadriddin Abulhasan Ali ibn Nosir al-Husayniy nomi asar matnida ikki o‘rinda tilga olingan. “Axbor ad-davlat as-saljuqiyya” asarida Saljuqbey va uning qabilasining tarix sahnasiga chiqishidan boshlab sulton To‘g‘rul III vafoti (1194), ya‘ni Iroq Saljuqiylari davlatining qulashigacha bo‘lgan tarixi yoritilgan. Muallif og‘zaki tarix va o‘z kuzatuvlari asosida Buyuk Saljuqiylar davlati, Iroq va Kirmon saljuqiylari haqida qimmatli ma‘lumotlar bergan. Asar arab va turk tillarida nashr qilingan hamda rus, fors, ingliz tillaridagi tarjimalari ham mavjud.

Ibn Asir (555/1160-630/1233) ning umumiy tarixga oid “Al-Komil fit-tarix” asari 11 jildidan iborat bo‘lib, insoniyat tarixining ilk davrlaridan 627/1230-yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olgan. Muallif 302/915-yilgacha bo‘lgan voqealarni bayon qilishda Tabariy (225/839-310/923)ning “Tarix ar-rusul va-l-muluk” asaridan foydalangan. Asarning so‘nggi jildlarida saljuqiylar va Mosul otabeglari haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Xususan, VIII jildida To‘g‘rul, Choribey va Alp Arslonlarning faoliyatlari, Qutalmishning taxt uchun sulton Alp Arslonga qarshi kurashi, Malazgirt jangi, sulton Malikshoh hukmronligi davri haqida so‘z boradi. Shuningdek, VIII–IX jildlarida Hasan Sabboh (vaf. 518/1124) ning hayoti va faoliyati, Nizomulmulukning o‘ldirilishi, botiniylar qo‘lga kiritgan qal‘alar va ularning qal‘alarni egallash taktikalari, Shohdiz qal‘asidagi kurashlar,



botiniylarning muhim davlat arboblari qarshi suiqaqd uyushtirish jarayonlari, Buyuk Saljuqiylar va botiniylar o‘rtasidagi kurashlar bilan bog‘liq voqealar batafsil yoritilgan. Asar Arab, eski turkiy, turk va qisman fransuz, rus, fors tillarida nashr qilingan.

Sibt ibn al-Javziy (580/1185-656/1258) ning “Mir’atuz-zamon fi tarixul-ayon” nomli asari insoniyat tarixining ilk davrlaridan 654/1257-yilgacha bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, arab tilida bitilgan. Asarda Qutalmishning sulton To‘g‘rulga qarshi isyoni va taxt uchun Alp Arslonga qarshi mujodalasi, Sulaymonshoh ibn Qutalmishning Anadolu, Suriyadagi fathlari va uning Sharafuddavla Muslim, Tutush bilan to‘qnashuvlari, Buyuk Saljuqiylarning Suriyada botiniylarga qarshi olib borgan kurashlari, botiniylar tarafidan qatl qilingan shaxslar haqida ma’lumotlar mavjud.

Asarning asl nusxasi taxminan 30 jildan ortiq bo‘lgan. Qutbiddin al-Yuniniy (640/1242-726/1326) asarning ba’zi qismlarini tashlab o‘tib, 21 jild holiga keltirgan. Asar to‘lig‘icha arab va ba’zi qismlari fransuz tilida, To‘g‘rul, Alparslon, Malikshoh davriga oid qismlari esa Ali Sevim tomonidan turk tilida nashr qilingan.

Iroq Saljuqiylari vaziri Anushervon ibn Xolid (459/1066-532/1138) o‘zining tarixiy xotiralari asosida fors tilida “Futuru zaman as-sudur va suduru zaman al-futur” asarini yozgan va unda 529/1134-yilgacha bo‘lgan voqealar bayon qilingan. Mazkur asar Imoduddin Kotib Isfahoniy tomonidan forschadan arab tiliga tarjima qilinib, “Nusrat al-fatra va usrat ul-fitra” nomi bilan 590/1194-yilgacha bo‘lgan tarix aks ettirilgan asar holiga kelgan. 623/1226-yil Bundoriy (586/1190-643/1245) asarning asl matnidagi iboralarni o‘zgartirmay, “Zubdat an-nusra va nuhbat al-usra” nomi bilan Iroq va Xuroson Saljuqiylari tarixini yorituvchi muxtasar asar shakliga keltirgan. Asarda botiniylar bilan hamkorlik qilgan saljuqiy amaldorlar faoliyati, Nizomulmulkning o‘ldirilishi, amir Shirg‘irning Alamut qal’asini qamal qilishi, vazir Sa’dulmulkning botiniylikda ayblanib o‘ldirilishi, xususan, sulton Sanjar davrida saljuqiylarning botiniylarga qarshi olib borgan kurashlari batafsil yoritilgan. Asar arab va turk tillarida nashr etilgan.

Ibn al-Adim (588/1192-660/1262) ning “Bug‘yatut-talab fi tarixi Halab” asarining 10 jildan ortig‘i bizgacha yetib kelgan. Asarda sulton Alp Arslonning tarjimai holi, sulton Muhammad Taparning botiniylarga qarshi yurishlari, sulton Muhammad Tapar va sulton Sanjar hukmronligi davrida botiniylar suiqaqdi qurboni bo‘lgan davlat arboblari, Suriyada botiniylar bilan bo‘lgan janglar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Asar to‘lig‘icha arab tilida (12 jild) nashr qilingan. Asarning saljuqiylarga doir qismlari Ali Sevim tomonidan “Biyografilerle Selçuklular Tarihi” nomi ostida turk tiliga o‘girilgan.

Shuningdek, Ibn al-Adimning “Zubdatul-Halab min tarixi Halab” nomli asari ham bo‘lib, u “Bug‘yatut-talab fi tarixi Halab” ning muxtasar shaklidir. Unda 641/1243-yilgacha bo‘lgan voqealar keltirilgan. Asarda Sulaymonshohning Suriyadagi fathlari, Kurzahil, Aynu Saylam jangi tafsilotlari keltirilgan. Asar to‘lig‘icha arab va 3 jild shaklida fransuz tilida, saljuqiylarga doir qismi esa turk tilida nashr qilingan.

Ibn Kasir (701/1302-774/1373)ning "Al-Bidoya va-n-nihoya" asari umumiy tarixga oid bo'lib, 15 jildidan iborat. Asarda insoniyat tarixining ilk davrlaridan 767/1365-yilgacha bo'lgan voqealar xronologik ketma-ketlikda yoritilgan. Asarning oxirgi jildlarida Buyuk Saljuqiylar va Anadolu Saljuqiylari tarixiga oid ma'lumotlar mavjud. Lekin Qutalmish va Sulaymonshoh faoliyati haqidagi ma'lumotlar juda kam.

Usmoniylar davrida asar Mahmud Shirvoniy tomonidan usmoniy turk tiliga tarjima qilinib, sulton Murod II ga taqdim etilgan. Asar arab va turk tillarida nashr qilingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Saljuqiylar davri Islom tarixining uch asrini qamrab olgan bo'lsa-da, bu davrda Islom sivilizatsiyasida erishilgan yutuqlar to'laqonli ochib berilmagan. Buning sababi saljuqiylar davri tarixi yoritilgan manbalarning salmog'i bilan bog'liq. Darhaqiqat, saljuqiylar hukmronligining muhim voqealarga boy bo'lgan dastlabki davri, ya'ni XI-XII asrlarga oid manbalar keyingi asrlardagi manbalarga nisbatan kamroq. Buning ustiga XI-XII asrlarda yozilgan tarixiy asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Bundan XI-XII asrlarda Saljuqiylar davlatida tarixiy asarlar yozishga e'tibor qaratilmagan, degan xulosaga bormasligimiz lozim. Chunki, XI-XII asrlarda yozilgan tarixiy asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdülkerim Özaydın. İbnü'l-Esîr, İzzeddin // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 21. – İstanbul: TDVY, 2000. – S. 26-27.
2. Ali Sevim. Azimi // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.4. – İstanbul: TDVY, 1991. – S. 330-331.
3. Ali Sevim. İbnü'l-Kalânisî'nin Zeylû Tarih-i Dımask adlı aserinde Selçuklularla ilgili bilgiler I (1044-1106) // Belgeler. 29.Cilt. Sayı 33, 2008. – S. 1-43.
4. Ali Sevim. İbnü'l Adim // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 20. – İstanbul: TDVY, 1999. – S. 478-479.
5. A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel. Selçuklu Tarihçiliği'ne Başlarken. – Konya: Necmettin Erbakan Üniversitesi, 2017. – 521 s.
6. Bundoriy. Zubdat an-nusra va nuhbat al-usra (زبدة النصرة و نخبه العصرة). – Qohira: Al-Kutub al-arabiyya, 1900. – 284 b.
7. Gümüş Ercan. İbnü'l-Ezrak ve eseri "Meyyâfârikîn ve Âmîd Tarihi" üzerine Türkiye'de yapılan çalışmalar ışığında bir değerlendirme // e-Şarkiyat İlmi Araştırmalar Dergisi. Sayı 7, 2012. – S. 3-13.
8. Ibn al-Adim. Bug'yatut-talab fi tarixi Halab (بغية الطلب في تاريخ حلب), 12 jild. Bayrut: Dorul-fikr, 1988. – 5863 b.
9. Ibn al-Adim. Zubdatul-Halab min tarixi Halab (زبدة الحلب من تاريخ حلب). – Bayrut: Dar al-kotob al-ilmiyah, 1996. – 528 b.
10. Ibn Asir. Al-Komil fit-tarix (الكمال في التاريخ), 11 jild. – Bayrut: Dar al-Kutub al-ilmiyah, 1987-2003.
11. Ibn Kasir. Al-Bidoya va-n-nihoya (البداية والنهاية). 21 jild. – Giza: Hijr, 1997-1999.



12. Ibn Azraq al-Fariqiy. Tarix al-Fariqi (تاريخ الفارقي). – Qohira: al-Hay'atul-ammatu lishuunil matabi al-amiriyyat, 1959. – 448 b.
13. Ibn Azraq al-Fariqiy. Tarixi Mayyafariqin (تاريخ ميفارقين). – İstanbul: Nubihar, 2014. – 704 b.
14. Ibn Kalonisiy. Zaylu tarixi Dimashq (ذيل تاريخ دمشق). – Bayrut: al-Abaul-yusaviin, 1908. – 445 b.
15. Muhammet Kemaloğlu. Türkiye Selçuklu Tarihi Birinci Elden Kaynakları // Journal of History Culture and Art Research. vol.2, No.3, 2013. – P. 1-38.
16. Muharrem Kesik. Selçuklular tarihi. – İstanbul: İstanbul üniversitesi, 2010. – 364 s.
17. Osman Turan. Selçuklular tarihi ve Türk-İslam medeniyeti. – İstanbul: Turan neşriyat yurdu, 1969. – 478 s.
18. Ramazan Şeşen. Müslümanlarda Tarih-Coğrafya Yazıcılığı. – İstanbul: İslam Tarih, Sanat ve Kültürünü Araştırma Vakfı, 1998. – 451 s.
19. Sadriddin Abulhasan Husayniy. Axbor ad-davlat as-Saljuqiyya (السلجوقية أخبار الدولة). – Lohur: Panjob universiteti nashriyoti, 1933. – 245 b.
20. Sibte ibn al-Javziy. Mir'atuz-zamon fi tarixul-ayon (مرآة الزمان في تواريخ الأعيان), 23 jild. – Damashq: al-Resalah al-a'lamiah, 2013.
21. Yusuf Şevki Yavuz, Casim Avcı. İbnü'l Cevzî, Ebü'l-Ferec // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.20. – İstanbul: TDVY, 1999. – S. 545.